



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ADABIYOT O‘QITISHDA VIRTUAL TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TA’LIMIY MUAMMO SIFATIDA

Malika Jazilova Bekmirzayevna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti o‘qituvchisi

malikajazilova9@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ta’limiy muammolari haqida gap boradi. Virtual ta’lim texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etishga imkon yaratadi, bunda o‘quvchilarning mustaqil ishlashlari, motivatsiyasi va o‘qituvchilarning malakasi katta ahamiyatga ega. Biroq, texnik muammolar, o‘qituvchilarning virtual ta’lim metodikalariga yetarlicha tayyorlanmaganligi hamda o‘quvchilarning ijtimoiy rivojlanishi kabi muammolar ham mavjud. Ushbu maqolada, virtual ta’lim texnologiyalarining ijobiy jihatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar tahlil qilinib, samarali foydalanish uchun tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Virtual ta’lim texnologiyalari, interaktiv ta’lim, onlayn darslar, texnik infratuzilma, pedagogik texnologiyalar, virtual uy-muzey, internet.

Adabiyot o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ta’limiy muammo sifatida hozirgi kunda o‘quv jarayonida katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, internet resurslarining kengayishi va ta’lim tizimining zamonaviylashtirilishi bilan birga, o‘quvchilarga bilim berish jarayonini samarali tashkil etish muammolari dolzarb bo‘lmoqda.

Adabiyot o‘qitish samaradorligini oshirish yuzasidan beriladigan tavsiyalar qat’iy retsept yo‘sinda, bir marta o‘rganib olib umr bo‘yi qo‘llayveradigan o‘zgarmas statik usullar yig‘masi emas. Tavsiya etiladigan ta’lim usullarining konseptual tabiatga ega, ayni vaqtida, har qanday masala echimining o‘zgacha variantlari ham bo‘lishi mumkinligini ko‘zda tutadigan ilmiy-pedagogik qarashlar tizimi tarzida qabul etilishi maqsadga muvofiqdirdir.¹⁰⁸

Adabiyot o‘qitish samaradorligini oshirish bo‘yicha beriladigan tavsiyalar haqidagi fikrni davom ettirib, shuni ta’kidlash mumkinki, o‘qitish metodlari va yondashuvlari o‘zgaruvchan jamiyat va ta’lim tizimining ehtiyojlariga qarab yangilanishi lozim. Bu jarayonda, o‘quvchilarning individual xususiyatlari, turli madaniy va ijtimoiy sharoitlar ham inobatga olinishi kerak deb o‘ylayaman. Chunki har bir o‘qituvchi va ta’lim muassasasi o‘z sharoitiga moslashgan, ijodiy va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga intilmoqda.

¹⁰⁸ Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish mutaxassisligi bo‘yicha bakalavr yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2022.10 b.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Shunday ekan, adabiyot darslarini faqatgina matnlarni yodlash yoki tahlil qilish bilan chegaralash o‘rniga, virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu jarayonda, zamonaviy texnologiyalar va multimedya vositalaridan foydalanish, o‘quvchilarga o‘z qiziqishlari asosida adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, an’anaviy o‘qitish metodlarini to‘liq inkor etmasdan, ularni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega deb hisoblayman.

Adabiyot darslari o‘quvchilarni nafaqat yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish, balki ularning dunyoqarashini kengaytirish va axloqiy-axborotiy tarbiyasini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu bois, adabiyot o‘qitish jarayonida virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish masalasi ta’lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda.

Virtual ta’lim texnologiyalari – bu kompyuter, internet va boshqa axborot vositalarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish orqali ta’lim olishni yanada samarali va qulay qilishni maqsad qilgan tizimdir. Bu texnologiyalar orasida onlayn kurslar, multimedia darsliklar, virtual sinflar, video darslar va interaktiv o‘quv materiallari muhim o‘rin tutadi. O‘quvchilar virtual muhitda darslarni ko‘rish, audio-video materiallarni tinglash, taqdimotlar va virtual olam yordamida o‘z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lishadi.

Dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falasafa doktori S.I.Kambarova tadqiqotlari davomida fakultativlarni virtual muzeylar bilan integratsiyalab olib borish masalalariga ham alohida to‘xtalib o‘tganlar. “Adabiyot – san’at – madaniyat” fakultativ mashg‘ulotlarini o‘tkazishda ma’lum soatlar virtual muzeylarga ajratildi. Virtual uy-muzeylar turli auditoriyadagi foydalanuvchilar qatori o‘quvchilarga ham keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, uzoq hududlardan turib kuzatish, vaqtining cheklanmagani, istalgan paytida kirish, muzey bo‘ylab erkin harakatlanish, xohlagan eksponatini uch o‘lchamda tomosha qilish, qayta murojaat qilish va hk. Faqat bunda internet tezligi yetarli bo‘lishi zarur.¹⁰⁹

Virtual muzeylar bilan fakultativlarni integratsiyalash masalasiga alohida e’tibor qaratish, o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Virtual muzeylar o‘quvchilarga vaqt va joydan qat’iy nazar, turli eksponatlar va san’at asarlarini ko‘rish imkonini beradi. Bunday imkoniyatlar, an’anaviy muzeylarga borishning geografik va vaqt chegaralaridan mustaqil bo‘lib, o‘quvchilarning tasavvurlari va bilimlarini kengaytiradi.

Bu esa o‘quvchi yoki talaba uchun **uzoq hududlardan turib kuzatish, imkoniyatiga ega bo‘ladilar**. Bu imkoniyat, ayniqsa, chekka hududlardagi o‘quvchilar

¹⁰⁹ S.I. Kambarova., Adabiyotni o‘quv fani va san’at turi sifatida o‘qitish metodologiyasi. Ped.fan.doktori (dsc) diss. – Toshkent, 2024. – 177 b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



uchun, yoki talabalar biror sabab bilan real muzeyga borolmasa, virtual muzey orqali ular xohlagan paytda kirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari erkin tarzda eksponatlar bo‘ylab harakatlanib, har bir ob’ektni yaxshilab o‘rganishlari mumkin. Ular nafaqat ko‘rish, balki turli burchaklardan kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul, adabiyot, san’at yoki madaniyat fanlarini o‘rganishda chuqurroq tushunishga yordam beradi. Va albatta buni yana

Uch o‘lchamda ko‘rishlari ham mumkin. Virtual muzeylarda eksponatlar ko‘pincha uch o‘lchamda ko‘rsatiladi, bu esa o‘quvchilarga san’at asarlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu turdagi ta’lim usuli vizual va interaktiv o‘qitish metodlarini samarali qo‘llash imkonini beradi. Demak, virtual muzeylar o‘quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratishda, bilim olish jarayonini interaktiv va qiziqarli qilishda katta ahamiyatga ega.

Adabiyot o‘qitishda virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ijobiyligi jihatlari:

1. Interaktivlik va ko‘p qirrali o‘quv jarayoni. Virtual ta’lim texnologiyalaridan foydalanish adabiyot o‘qitish jarayonini interaktiv, qiziqarli va ko‘p qirrali qiladi. O‘quvchilarni multimedia resurslari (audio, video, interaktiv matnlar) orqali adabiyot mavzularini chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. O‘quvchilarning mustaqil ishlarini rag‘batlantirish. Virtual darslar orqali o‘quvchilarni mustaqil izlanish va ijodiy ishlarga jalb qilish osonlashadi. O‘quvchilar o‘z vaqtida o‘qish materiallarini onlayn ravishda topish, muhokama va tahlil qilish orqali o‘z bilimlarini kengaytirishi mumkin.

3. Geografik chegaralarning yo‘qolishi. Virtual ta’lim texnologiyalari orqali darslarni dunyoning istalgan burchagidan olish imkoniyati o‘quvchilarga cheklovlarsiz bilim olishni ta’minlaydi. Bu, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi o‘quvchilar uchun katta afzallik yaratadi.

4. O‘qituvchilar uchun qulayliklar. O‘qituvchilar uchun virtual ta’lim texnologiyalarini qo‘llash darslarni samarali tashkil qilish, ularni yangilash va taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Onlayn darslarni tahlil qilish, o‘quvchilarning darsga faolligini kuzatish va natijalarni baholash ancha osonlashadi.

Ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolar:

1. Texnik muammolar. Virtual ta’lim texnologiyalarining samarali ishlashi uchun yuqori sifatli texnik infratuzilma zarur. Internet tezligi, kompyuter yoki mobil qurilmalarning mosligi, hamda texnik xizmatlarning mavjudligi o‘quvchilarga onlayn darslarga to‘liq kirish imkoniyatini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. O‘qituvchilarning malakasizligi. Ba’zi o‘qituvchilar virtual ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanishni bilmaydilar. Ularning texnik bilimlari va onlayn ta’lim metodikalari haqida yetarli ma’lumotga ega emasligi o‘quv jarayonining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3. O‘quvchilarning motivatsiyasi. Virtual ta’limda o‘quvchilarning o‘zlarini mustaqil ravishda boshqarishlari talab etiladi. Ba’zi o‘quvchilar uchun bu jarayon qiyin bo‘lishi





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



mumkin, chunki ular an'anaviy dars muhitiga ko'nikkan. Shu sababli, motivatsiya va o'z-o'zini nazorat qilish masalalari muhimdir.

4. Sosializatsiya va muloqotning yo'qolishi. Virtual ta'lim texnologiyalarining ko'p foydalanishi o'quvchilarning haqiqiy sinfda o'qish va guruhdagi muloqotga bo'lgan ehtiyojini kamaytiradi. Bu, ayniqsa, yosh o'quvchilar uchun ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biroq, bu muommolarga o'qituvchilarning malakasizligi sabab bo'lishi mumkin, ularni oldini olish uchun o'qituvchilarga muntazam ravishda onlayn ta'lim texnologiyalarini o'rganishlari uchun vaqtি ajratilishi kerak. Buning uchun maxsus treninglar va vebinarlar tashkil qilish, va texnik yordamni taqdim etish o'quv jarayonini samarali qilishga yordam beradi. Taklif sifatida, o'qituvchilarni virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, onlayn ta'lim metodikalariga o'rgatadigan kurslar tashkil qilish, hamda jamoaviy tajriba almashishni tashkil etish samarali bo'lar edi.

Adabiyot o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari va ijobiy tomonlari juda kengdir. Ular o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga, o'quvchilarga bilimlarni mustahkamlashda qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Biroq, texnik muammolar, o'qituvchilarning malakasizligi, o'quvchilarning motivatsiyasi va ijtimoiy muloqotning yo'qolishi kabi qator muammolarni bartaraf etish zarur. Shu ma'noda, virtual ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun ularni pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil qilish, o'qituvchilarni tayyorlash va o'quvchilarga motivatsion yordam ko'rsatish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Adabiyot o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin, ammo buni amalga oshirish uchun ta'lim sohasidagi barcha ishtirokchilarning hamkorligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.I.Kambarova., Adabiyotni o'quv fani va san'at turi sifatida o'qitish metodologiyasi. Ped.fan.doktori (dsc) diss. – Toshkent, 2024. – 177 b.
2. Qozoqboy Yo'ldosh., Muhayyo Yo'ldosh., O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish mutaxassisligi bo'yicha bakalavr yo'nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2022. 298 b.
3. **Google Classroom** — classroom.google.com
4. Udemy — www.udemy.com

